


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida 587 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 465 taga kamdir.




* fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni 18 594 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,5 % savdo, 16,2 % sanoat, 15,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 24,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, %)



**Ro‘yxatdan o’tgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-mart holatiga ko’ra, birlikda)**

	Umumiy soni, birlik		01.03.2020 yil	
	01.03.2019 yil	01.03.2020 yil	O’tgan yilga nisbatan o’sish sur’ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	15 966	18 594	116,5	100,0

shundan:

Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi	2 405	2 788	115,9	15,0
Sanoat	2 559	3 005	117,4	16,2
Qurilish	1 525	1 936	127,0	10,4
Savdo	3 289	3 995	121,5	21,5
Tashish va saqlash	548	629	114,8	3,4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 050	1 209	115,1	6,5
Axborot va aloqa	194	213	109,8	1,1
Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish	212	261	123,1	1,4
Boshqa turlari	4 184	4 558	108,9	24,5

Hududlar bo‘yicha ro‘yxatdan o’tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko‘pi Jizzax shahri (5 660 ta), Sharof Rashidov (3 100 ta), Zomin (1 524 ta), G’allaorol (1 438 ta) va Forish (1 284 ta) tumanlari hissasiga to‘g’ri keladi. Aksincha, Yangiobod (404 ta), Zafarobod (536 ta) va Arnasoy (572 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-mart holatiga ko'ra)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 17 676 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 463 taga (16,2 %) o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, %)



Savdo - 21,4 %



Sanoat - 16,1 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 14,8 %



Qurilish - 10,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 6,3 %



Tashish va saqlash - 3,4 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 1,4 %



Axborot va aloqa - 1,1 %




Boshqa turlari - 25,0 %

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 387 ta), Sharof Rashidov (2 988 ta), Zomin (1 444 ta), G'allaorol (1 397 ta) va Forish (1 234 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (376 ta), Zafarobod (466 ta) hamda Arnasoy (566 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-fevral oylarida, birlikda)


2020-yil yanvar-fevral oylarida 567 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 465 taga kamdir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
yillar kesimida soni**
(yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (136 ta), Sharof Rashidov (116 ta), Zomin (53 ta), G'allaorol (48 ta) va Forish (45 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (10 ta), Arnasoy (13 ta), Mirzacho'l (19 ta), Zafarobod (22 ta), Do'stlik (24 ta) hamda Paxtakor (28 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
hududlar bo'yicha soni**
(yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (191 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (114 ta), sanoat (83 ta), qurilish (71 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalarida (36 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (7 ta), sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (9 ta), tashish va saqlash (17 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (59 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(1-mart holatiga ko'ra birlikda)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 14 519 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4 208 ta, oilaviy korxonalar – 773 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9 188 ta va boshqalar 350 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1-mart holatiga ko'ra)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 9 545 tani tashkil etib, ulardan 9 188 tasi yoki 96,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 313 taga yoki 32,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida 432 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 62,2 % ga kamdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	01.03.2020 yil		2020-yil yanvar-fevral oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	9 545	9 188	432
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 665	1 578	88
Sanoat	1 827	1 763	54
Qurilish	1 420	1 374	64
Savdo	2 464	2 388	146
Tashish va saqlash	477	460	17
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	552	527	24
Axborot va aloqa	99	94	6
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	125	123	6
Boshqa turlari	916	881	27

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning jami sonidagi eng ko'p ulushi savdoda 26,0 %, sanoatda 19,2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17,2 %, qurilishda 15,0 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5,7 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kam ulushi esa axborot va aloqada 1,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,3 %, tashish va saqlashda 5,0 % va boshqa faoliyat turlarida 9,6 % ga to'g'ri kelgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(hududlar kesimida 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14 470 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-mart holatiga qaraganda 19,1 % ga oshgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar
(hududlar kesimida 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxona	mikrofirmalar
Jizzax viloyati	14 470	605	13 865
Jizzax shahri	4 649	254	4 395

tumanlar:

Arnasoy	432	9	423
Baxmal	756	21	735
G'allaorol	1 128	51	1 077
Sharof Rashidov	2 635	115	2 520
Do'stlik	522	20	502
Zomin	1 135	39	1 096
Zarbdor	609	19	590
Zafarobod	322	7	315
Mirzacho'l	444	18	426
Paxtakor	517	32	485
Forish	1 035	13	1 022
Yangiobod	286	7	279

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi
(hududlar kesimida 1-mart holatiga ko'ra, %)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 649 tasi (32,1 %) Jizzax shahri, 2 635 tasi (18,2 %) Sharof Rashidov, 1 135 tasi (7,8 %) Zomin hamda 1 128 tasi (7,8 %) G'allaorol tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14 470 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3 768 tasi (26,0 %) – savdo, 2 828 tasi (19,5 %) - sanoat, 2 581 tasi (17,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 860 tasi (12,9 %) - qurilish, 1 118 tasi (7,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 595 tasi (4,1 %) - tashish va saqlash, 173 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa, 173 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi va 1 374 tasi (9,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar ulushi (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, %)



2020-yil yanvar-fevral oylarida 559 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 450 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (132 ta), Sharof Rashidov (112 ta), Zomin (50 ta), G'allaorol va Forish tumanlari (45 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiobod (9 ta), Arnasoy (12), Mirzacho'l (18 ta) hamda Zafarobod (21 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral holatiga, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (191 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (112 ta), sanoatda (83 ta) va qurilishda (71 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (7 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (8 ta) hamda tashish va saqlashda (17 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar (2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 833 tani tashkil etib, ulardan 773 tasi yoki 92,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.




Oilaviy korxonalarining soni
(hududlar kesimida 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	01.03.2020 yil		2020-yil yanvar-fevral oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jizzax viloyati	833	773	52
Jizzax shahri	210	201	13
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5	4	-
Baxmal	40	35	-
G'allaorol	60	58	2
Sharof Rashidov	212	194	14
Do'stlik	64	60	2
Zomin	75	68	5
Zarbdor	34	34	4
Zafarobod	54	45	7
Mirzacho'l	11	11	2
Paxtakor	14	12	2
Forish	43	41	1
Yangiobod	11	10	-

Oilaviy korxonalar soni
(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
(hududlar kesimida 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,8 % yoki 323 tasi sanoat, 20,2 % yoki 156 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,7 % yoki 114 tasi savdo, 14,7 % yoki 114 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 5 tasi qurilish, 0,5 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,1 % yoki 54 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, %)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(hududlar kesimida yanvar-fevral oylarida, birlikda)

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	52	100,0
Jizzax shahri	13	25,0

tumanlar:

Arnasoy	-	-
Baxmal	-	-
G'allaorol	2	3,8
Sharof Rashidov	14	26,9
Do'stlik	2	3,8
Zomin	5	9,6
Zarbdor	4	7,7
Zafarobod	7	13,5
Mirzacho'l	2	3,8
Paxtakor	2	3,8
Forish	1	2,1
Yangiobod	-	-

2020-yil yanvar-fevral oylarida 52 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 88,1 % ga kamroqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (13 ta), Sharof Rashidov (14 ta), Zafarobod (7 ta) va Zomin tumanlari (5 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Forish (1 ta), G'allaorol (2 ta), Do'stlik (2 ta) hamda Mirzacho'l (2 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, %)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 36,5 % yoki 19 tasi sanoat, 26,9 % yoki 14 tasi savdo, 13,5 % yoki 7 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 15,4 % yoki 8 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,8 % yoki 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,9 % yoki 2 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 185 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga yoki 33,1 % ga o'sgan.

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 185 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqori Jizzax shahri (71 ta), Forish (20 ta), G'allaorol (16 ta), Sharof Rashidov (16 ta) va Zomin (15 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho'l (2 ta), Zarbdor (2 ta), Do'stlik (4 ta) hamda Baxmal tumanlarida (6 ta) to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining soni

(yillar kesimida 1-mart holatiga, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimida soni
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 120 tasi qo'shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, %)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni**

(hududlar kesimida 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jizzax viloyati	185	120	65
Jizzax shahri	71	52	19

tumanlar:

Arnasoy	8	6	2
Baxmal	6	4	2
G'allaorol	16	11	5
Sharof Rashidov	16	8	8
Do'stlik	4	2	2
Zomin	15	8	7
Zarbdor	2	1	1
Zafarobod	6	1	5
Mirzacho'l	2	-	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	20	15	5
Yangiobod	10	4	6

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 5 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahri (1 ta yoki jamidagi ulushi 20,0 %), Baxmal (1 ta yoki 20,0 %), G'allaorol (1 ta yoki 20,0 %), Sharof Rashidov (1 ta yoki 20,0 %) va Yangiobod tumanlari (1 ta yoki 20,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni


(davlatlar kesimidagi yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Koreya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasidan 1 ta, Rossiya Federatsiyasiyasidan 1 ta va Italiya Respublikasidan 1 ta korxona yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar - fevral oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (2 ta yoki 40,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta yoki 20,0 %), sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 ta yoki 20,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida (1 ta yoki 20,0 %) ni tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	41	34	7
Qozog'iston Respublikasi	3	2	1
Ozarbayjon Respublikasi	4	2	2
Tojikiston Respublikasi	4	3	1
Turkmaniston Respublikasi	3	-	3
Ukraina Respublikasi	2	-	2
Moldova Respublikasi	1	1	-

Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 22,2 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,2 %, Tojikiston Respublikalarida 2,2 % va Qozog'iston Respublikasi 1,6 % ga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomalar usidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat Ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqida davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
DAVLAT STATİSTİKA QO'MİTASI

ASOSIY SAHİFA QO'MİTA HAQIDA AXBOROT XİZMATI INTERAKTİV XİZMATLAR OCHIQ MA'LUMOTLAR MUROJAATLAR KONTAKTLAR

Xizmatlar ro'yxati
Elektron hisobot
KTYADR ma'lumotlari
Usuliy materiallar
Statistik klassifikatsiyalar
Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati
Korxona pasporti

STIR kodini kiritning

Rasmidagi kodni kiritning

Kodni yangilash uchun resmiga bosing

Qidiruv

FOYDALI MA'LUMOTLAR

- Aholini ro'yxtaga olish-2022
- Harakatlar strategiyasi
- Press-rezizlar
- Choraklik natijalar
- Nashrlar – statistika haqida
- Usuliy materiallar
- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy sayti orqali real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olish imkoniyatiga egalar.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 71 230-83-65 (66)**